

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI  
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**Buzulayho Qodirova Turg'unovna,**

*Andijon davlat pedagogika instituti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), professor*

**Umidaxon Nizomova O'ktamjon qizi,**

*Andijon davlat pedagogika instituti 1- kurs magistranti*

*G-mail. [nizomovaumidaxon1294@gmail.com](mailto:nizomovaumidaxon1294@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Mantiqiy fikrlash tushunchasining pedagogik va psixologik mohiyati, uning turlari hamda mazkur masala yuzasidan olimlarning ilmiy qarashlari yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** mantiqiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, tafakkur, pedagogika, psixologiya, ta'lim samaradorligi, bilish faoliyati.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы теоретические основы развития логического мышления у учащихся начальных классов. Рассмотрены педагогическая и психологическая сущность понятия логического мышления, его виды, а также научные взгляды учёных по данной проблеме. Кроме того, раскрыто педагогическое значение развития логического мышления в процессе начального образования. Результаты исследования показывают, что формирование навыков логического мышления у учащихся начальных классов является одним из важнейших факторов повышения эффективности образовательного процесса.

**Ключевые слова:** логическое мышление, начальное образование, мышление, педагогика, психология, эффективность образования, познавательная деятельность.

**Abstract.** This article analyzes the theoretical foundations of developing logical thinking in primary school students. The pedagogical and psychological essence of the concept of logical thinking, its types, and the scientific views of scholars on this issue are discussed. Furthermore, the pedagogical significance of developing logical thinking in the process of primary education is revealed. The research findings indicate that the formation of logical thinking skills among primary school students is one of the key factors in improving the effectiveness of education.

**Keywords:** logical thinking, primary education, thinking, pedagogy, psychology, educational effectiveness, cognitive activity.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi va to'g'ri xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf davri bolaning intellektual rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, ushbu davrda mantiqiy fikrlashni shakllantirish keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatning poydevorini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarda ham o'quvchilarning kreativ va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Dunyoda inson kapitaliga bo'lgan ehtiyojning ortishi "aql" va " mantiq" kategoriyalariga turli madaniy, ta'limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, yoshlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o'lovch sifatida qaralishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning intellekti va dunyoqarashini rivojlantirishda boshlang'ich sinf fanlarini o'qitishda mantiqiy fikrlashga oid mashqlardan foydalanish, integrallashgan interfaol ta'lim texnologiyalari, virtual va eksperimental loyihalarni joriy etish orqali ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali mexanizmlari yo'lga qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish g'oyasini, fikrini, maqsadini keng tatbiq qilish imkoniyatlari oshirilmoqda.

Jahonda keng qamrovli tushuncha sifatida "aql" kontseptini tahlil qilish, boshlang'ich sinf fanlarini o'qitishda ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlashga yo'naltirish, ta'limning kompetensiyaviy talablari tarkibini mantiqiy fikrlash darajasiga oid mezonlar, xususiyatlar asosida kengaytirishga oid ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaralishi kuzatiladi. Globallashuv va axborot ko'lamining intensivlashuvi sharoitida boshlang'ich sinf fanlaridan bilimlarni tanqidiy va ijodiy yondashuvga ko'ra egallash, shuningdek matematika, ona tili, o'qish, tabiiy fanlar doirasida mantiqiy fikrlashning birlamchi funksiyalarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar fanning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ta'sirini oshirish, ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiyada keng o'rganilgan. L.S. Vygotskiy ta'lim jarayoni va ijtimoiy muhit tafakkur rivojlanishining asosiy omili ekanligini ta'kidlaydi. J. Piaget esa bolalarda mantiqiy fikrlashning bosqichma-bosqich rivojlanishini, ayniqsa 7–11 yoshda konkret operatsiyalar ustunligini asoslab beradi.

R.S. Nemov va E. G'oziyev mantiqiy fikrlashni tahlil, sintez, taqqoslash va umumlashtirish kabi aqliy jarayonlar orqali shakllanadigan tafakkur turi sifatida izohlaydi. M.M. Davletshin esa bilish faoliyati va o'quv motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Pedagog olimlar R. Mavlonova, J.G'. Yo'ldoshev, O'. Tolipov va M. Usmonboyevlar interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali ekanligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili mantiqiy fikrlashni rivojlantirish psixologik rivojlanish, pedagogik yondashuv va faol o'qitish metodlariga asoslanishini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot davomida pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv

metodlaridan foydalanildi. Mantiqiy fikrlashning mohiyati, uning turlari va boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati yuzasidan mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi.

**Tahlillar va natijalar. 1.1. Mantiqiy fikrlash haqida umumiy tushuncha va uning pedagogik-psixologik mohiyati.** Mantiqiy fikrlash inson tafakkurining muhim shakli bo'lib, voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, sabab va oqibat munosabatlarini tushunish hamda asosli xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Psixologik nuqtai nazardan mantiqiy fikrlash tafakkurning oliy shakli sifatida insonning bilish jarayonlarini samarali tashkil etadi.[1]

Pedagogik jihatdan mantiqiy fikrlash o'quvchilarning bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishiga, o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish jarayoni kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, sintezlash va umumlashtirish kabi aqliy amallar orqali amalga oshiriladi.

L.S. Vigotskiyning fikricha, bolaning tafakkuri ijtimoiy muhit va ta'lim jarayonida shakllanadi. Ta'lim bolaning mavjud rivojlanish darajasidan oldinda borib, uning intellektual imkoniyatlarini kengaytiradi.[2] J.Piaje esa mantiqiy tafakkurning rivojlanishini bolaning yosh xususiyatlari bilan bog'liq holda izohlaydi va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda konkret amaliy tafakkur ustunligini ta'kidlaydi.[3] Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda qayd etilishicha, kichik maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ularning bilish faoliyati va o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi [8]. Mantiqiy fikrlash o'quvchilarning bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishi, taqqoslashi, umumlashtirishi va xulosa chiqarish jarayonlarining asosini tashkil etadi.[6] Boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda ijodiy yondashuvini shakllantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.[7]

### **1.2. Mantiqiy fikrlashning turlari va mantiqiy fikrlash haqida ilmiy qarashlar.**

Mantiqiy fikrlash - bu insonning voqelikni izchil, asosli va dalillarga tayangan holda tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Mantiqiy fikrlash shaxsning bilish faoliyatini tashkil etuvchi murakkab psixik jarayon bo'lib, u tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi tafakkur amallari orqali namoyon bo'ladi [9]. Bu tushuncha falsafa, psixologiya, kognitiv fanlar sohalarida chuqur o'rganilgan. Quyida mantiqiy fikrlash haqidagi ilmiy qarashlar asosiy yo'nalishlar bo'yicha tushuntiriladi:

#### **1. Falsafiy yondashuv.**

Falsafada mantiqiy fikrlash haqiqatni anglashning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel mantiq faniga asos solgan. U sillogizm (xulosa chiqarish usuli) nazariyasini ishlab chiqqan.

#### **2. Psixologik yondashuv.**

Psixologiyada mantiqiy fikrlash inson tafakkurining bir turi sifatida o'rganiladi. Jean Peaget fikricha, bolalarda mantiqiy fikrlash bosqichma-bosqich rivojlanadi. Ayniqsa, konkret operatsiyalar bosqichi (7-11 yosh) muhim. Bu fikrlarga qo'shimcha ravishda Lev Vygotskiy esa, mantiqiy fikrlash ijtimoiy va ta'lim orqali shakllanadi. Bunda til va muloqot muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash tug'ma emas, balki keyin hayot davomida rivojlanishi haqidagi fikrlarini aytib o'tgan.

3. Kognitiv yondashuvda mantiqiy fikrlash algoritmlar va formallashtirilgan tizimlar orqali modellashtiriladi.

Mantiqiy fikrlash- bu inson tafakkurining asosiy va murakkab shakli bo'lib, u quyidagi sohalarida ilmiy qarashlarga, fikrlarga va nazariyalariga ega.

Falsafada - haqiqatni anglash vositasi;

Psixologiyada- rivojlanadigan qobiliyat;

Kognitiv fanlarda modellashtirilgan jarayon sifatida qaraladi va o'rganiladi.

Ilmiy manbalarda mantiqiy fikrlash bir necha turlarga ajratiladi: induktiv fikrlash; deduktiv fikrlash; analitik fikrlash; tanqidiy fikrlash; ijodiy-mantiqiy fikrlash.

Induktiv fikrlash - alohida faktlardan umumiy xulosaga kelishni nazarda tutadi. O'quvchi misollar asosida qoida yoki qonuniyatni aniqlaydi.

Deduktiv - fikrlash esa umumiy qoida va qonuniyatlardan kelib chiqib, muayyan holatni tushuntirish jarayonidir.

Analitik fikrlash - murakkab obyekt yoki hodisani qismlarga ajratib o'rganishni ifodalaydi. Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash, matematik masalalarni yechish jarayonida ushbu fikrlash turi faol rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlash - ma'lumotlarni baholash, dalillarni tekshirish va asosli qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Mantiqiy fikrlash masalasi qadimdan ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Aristotel mantiq fanining asoschisi sifatida fikrlash qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.[4] Keyinchalik I. Kant, G. Hegel, J. Dyui kabi mutafakkirlar tafakkurning rivojlanishi va bilish jarayonidagi o'rnini yoritib berganlar.

Mahalliy olimlardan N. G'aybullayev, M. Ochilov, R. Mavlonova va boshqalar ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydilar.[5]

Mantiqiy fikrlash quyidagi aqliy operatsiyalar orqali namoyon bo'ladi: tahlil; sintez; taqqoslash; umumlashtirish; abstraksiyalash; konkretlashtirish; tasniflash.

### **1.3. Boshlang'ich ta'limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.**

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning keyingi intellektual rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. antiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi va ijodiy

yondashuvini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi.[10] Shu sababli mazkur bosqichda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish quyidagi pedagogik ahamiyatga ega:

Birinchi, o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Mantiqiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar bolalarda o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

Ikkinchi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilar tayyor bilimlarni qabul qilish bilan cheklanib qolmay, ularga mustaqil ravishda erishishni o'rganadilar.

Uchinchi, muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Matematik masalalar, mantiqiy o'yinlar va integrallashgan topshiriqlar orqali bolalarda tahliliy yondashuv shakllanadi.

To'rtinchi, kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi. Mantiqiy fikr yuritish jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini asoslash, dalillar keltirish va bahs-munozara olib borishga o'rganadilar.

Bugungi kunda interfaol metodlar, STEAM texnologiyalari, muammoli ta'lim hamda didaktik o'yinlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi.

Ushbu mavzudagi izlanishlar, ilmiy yondashishlarning natijalari, tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat bilimlarni, balki o'zlashtirish samaradorligini oshirishi, qolaversa ularning shaxs sifatida kamol topishiga ham xizmat qilishi, shu bilan birga muammolarning yechimini topishga, uni bartaraf qilish yo'llarini hamda fikrlashga juda katta ko'makchi bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, mantiqiy fikrlashning shakllanishi o'quvchilarning kelgusida murakkab muammolarni hal qilish, tanqidiy yondashuvni qo'llash va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirib berishini ko'rish mumkun bo'ldi.

Shu sababli boshlang'ich ta'lim amaliyotida mantiqiy topshiriqlar tizimini takomillashtirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanib o'quvchilarning bilim va tafakkurlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinflardagi fanlarni o'qitishda mantiqiy fikrlashga doir mashqlar, misollar va masalalardan foydalanish o'quvchilarning aqliy tafakkuruni va salohiyatini yana mustahkamlab rivojlantirishga yordam beradi. Shu asnod, har bir mavzu bo'yicha mantiqiy fikrlashga doir mashqlar, misollar va masalalarning berilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Mantiqiy fikrlashga qaratilgan mavzularda ayniqsa, 1-2-sinf o'quvchilariga ko'proq rasmi, illustratsiyalik va rangli, qiziqarli soddaroq tarzda mashqlardan foydalanish xususan, o'quvchilar yoshi va aqliy faoliyatiga mos tarzda bo'lib, xulosalar keltirishga yordam beradi. 3-4-sinf o'quvchilariga mantiqiy fikrlashga oid mavzularda sal murakkabroq va raqamli mashqlardan foydalanish o'quvchilarning yoshi va o'zlashtirish jihatdan to'g'ri keladi.

Shu bilan birgalikda ularning mantiqiy fikrlash doirasini yanada kengaytirishga yordam beradi. Mantiqiy fikrlash o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va didaktik o'yinlardan unumli foydalanish qulay va maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nemov R.S. Psixologiya. – Moskva: Vldos, 2016.
2. Vigotskiy L.S. Myshlenie i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982.
3. Piaje J. Rech i myshlenie rebenka. – Moskva: Pedagogika-Press, 1994.
4. Aristotel. Organon. – Moskva: Mysl, 1978.
5. Mavlonova R., To'rayeva O. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
6. Yo'ldoshev JG, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi; 2004.
7. Tolipov O'Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan; 2006.
8. Davletshin MM. *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O'qituvchi; 2002.
9. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi; 2010
10. Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Sano-standart; 2017.

